

**YANGI O'ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS**

*Temurbek Murodillayev*

*TDPU Tarix fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada birinchi, ikkinchi va uchinchi renessans kelib chiqish tarixi va O'zbekistonda Uchinchi renessansning amalga oshirilishi va uning mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** renessans, Italiya, Yaqin Sharq, *Movarounnahr*, *Uyg'onish davri*, *Uchinchi renessans*, *yoshlar*, *globallashuv*, *milliy g'oya*.

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС**

*Темурбек Муродиллаев*

*Студент исторического факультета ТГПУ*

**Аннотация:** В данной статье описывается история зарождения первого, второго и третьего ренессанса и осуществления третьего ренессанса в Узбекистане и его сущность.

**Ключевые слова:** *ренессанс, Италия, Ближний Восток, Мовароуннар, Возрождение, Третье Возрождение, молодежь, глобализация, национальная идея.*

**NEW UZBEKISTAN AND THE THIRD RENAISSANCE**

*Temurbek Murodillayev*

*Student of TSPU History faculty*

**Abstract:** This article describes the history of the origin of the first, second and third renaissance and the implementation of the third renaissance in Uzbekistan and its essence.

**Key words:** renaissance, Italy, Middle East, Movarounnahr, Renaissance, Third Renaissance, youth, globalization, national idea.

Bizga tarixdan ayonki ijtimoiy taraqqiyot doimo bir yo'sinda ravon bo'lmagan. Odamzod umumiy rivojlanish bilan birga qanchadan-qancha to'siqlarni, tanazzul va tangliklarni boshidan kechirgan. So'ng ularni bartaraf etib, o'z moddiy va madaniy darajasini qayta tiklagan va yangi taraqqiyot sari astoydil intilgan. Fanda bunday yirik, salmoqli yuksalishni tiklash, uyg'onish, renessans ham deb ataydilar. Renessans – uyg'onish davri, ya'ni fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi, odatda Yevropa tarixidagi eramizning 1400-yildan 1600-yilgacha ishora qiladi. Biroq ko'plab tarixchilar mamlakatlarga qarab, uyg'onish davri erta boshlangan yoki keyinroq tugagan deb ta'kidlashadi. Tarix kitoblarida Uyg'onish davri Italiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib u yerda 14-asrda boshlangan deb ko'rsatiladi. Renessans fransuzcha “qayta tug'ilish” so'zidan kelib chiqqan. Bruklindagi Nyu-York shahar universiteti ma'lumotlariga ko'ra, klassik antik davrga bo'lgan kuchli qiziqish va uni o'rganish o'rta asrlardan keyin “qayta tug'ilgan” va bu davrda klassik falsafa e'tibordan chetda qolgan yoki unutilgan. Uyg'onish davri mutafakkirlari klassik matnlar va falsafalarni qaytadan targ'ib qilish orqali o'z madaniyatini jonlantirishga intildi. Bu esa Renessans atamasini kelib chiqishi uchun asos bo'lgan.

Salib yurishlari Uyg'onish davrining boshlanishigda katta ro'l o'ynaydi, deb yozadi Flipp Van Ness Myers o'zining “O'rta asrlar va zamonaviy tarix” asarida. Salib yurishlari chog'ida yevropaliklar ko'plab madaniy shaharlarda muvaffaqiyatga erishgan, rivojlangan Yaqin Sharq sivilizatsiyalariga duch kelishdi. Islom mamlakatlari Yevropada yyoqolib ketgan ko'plab klassik yunon va rim matnlarini saqlab qoldi va ular qaytib kelgan salibchilar orqali qayta tiklandi. Ko'pgina tarixchilar Florensiyani Uyg'onish davrining tug'ilgan joyi deb bilishadi. Ammo

boshqalar bu nomni butun Italiyaga kengaytiradilar. Van Ness Myersining soʻzlariga koʻra, Italiyadan Uygʻonish fikri, qadriyatlar va badiiy texnikasi butun Yevropaga tarqaldi. Italiyadagi harbiy bosqinlar gʻoyalarning tarqalishigayordam berdi. Fransiya va Angliya oʻrtasidagi “Yuz yillik” urushning tugashi odamlarga mojarolardan tashqari masalalarga ham eʼtibor qaratishga imkon berdi.

“Renessans davri saʼnati klassik saʼnatdan qattiq taʼsirlanish natijasida vujudga keldi” deb yozgan edi Virjina Koks “Italiya Uygʻonish davrining qisqacha tarixi” asarida. Klassik va Uygʻonish davri saʼnati inson goʻzalligi va tabiatga qaratilgan. Odamlar hatto diniy asarlarda ham, hayot kechirish va his-tuygʻularni namoyon etishga urinishgan.

Holbuki, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Yevropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. U Yevropadagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, yaʼni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bogʻliq boʻlmagan boʻlsa-da, madaniyat tarixida soʻnmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta taʼsir koʻrsatdi. SHuning uchun biz IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uygʻonish davri, aniqrogʻi ilk Uygʻonish davri madaniyati deb atashga toʻla asosimiz bor. Bu ilk Uygʻonish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlaridan farqli oʻlaroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bogʻliqdir. Markaziy Osiyoda ilk Uygʻonish davri IX-XII asrlarga toʻgʻri keladi va oʻzgacha shart-sharoitlarga kechdi. Uning koʻlami oqibatlarini, jahon sivilizatsiyasiga taʼsiri ham boʻlakcha boʻlgan. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir boʻlgan oʻta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji ijtimoiy va iqtisodiy oʻzgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli taʼsir etgan. Maʼlumki Movarounnahr istilo qilinib, xalifalikka qoʻshib olingach, zabt etilgan oʻzga mamlakatlar qatorida, bu oʻlkada ham arab tili va imlosi joriy etiladi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili edi. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar hukmronlik qilgan IX-XII asrlarda Movarounnahr aholisi oʻrtasida tinchlik, osoyishtalik, yaqinlik va hamjihatlik vujudga keldi. Natijada oʻlkada moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha

tezlashdi. Shaharlar hayoti yuksaldi, savdo-sotiq, hunarmandchilik o'sdi, aholi faolligi barqarorlashdi, sa'nat ayniqsa, devoriy tasvir ravnaqi yangi bosqichga ko'tarilgan edi. Xaykaltaroshlik, badiiy yog'och o'ymakorlik, ganchkorlik taraqqiy etdi. Musiqachilar bastakorlar ko'payib bordi, naychilar, o'yinchi-raqqoslar, surnaychilarning oilaviy chiqishlari bo'lib turar edi. Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega boldi. Uyg'onish atamasi antik dunyodan zamonaviy dunyoga o'tish davri bo'lib, ma'rifat davrining tug'ilishiga zamin yaratdi. Ilm-fan, sa'nat, falsafa, savdo-sotiqdagi o'zgarishlar kabi texnologik yutuqlar jamiyatda unutilmas taassurot qoldirdi va zamonaviy madaniyatning ko'plab elementlariga zamin yaratdi.

So'ngi vaqtlarda O'zbekistonda uchinchi Renessans atamasi kun tartibiga chiqqan. Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi? Uning mohiyati qanday? Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bunga aniqlik kiritdi.

"Biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli



osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi”, deydi Shavkat Mirziyoyev.

Davlat rahbari so‘zi davom etarkan, buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlarini keltiradi.

“Men yuqorida Aristotelning fikrlarini bejiz eslamadim. Hammangizga yaxshi ma’lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi to‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi. O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”, deydi. Prezidentimiz.

Bugun globallashayotgan zamonda makon tushunchasi torayib bormoqda. Dunyoning narigi burchagida axborotni lahza o‘tmay bu nuqtasida ko‘rish mumkin. Ammo shunisi muhimki, Vatan va uning istiqboli haqida qarashlar hech qachon

toraygan emas. Prezidentimizning mamlakatimiz kelajagini ta'lim va ilmu fanda ko'rayotgani, uchinchi Renessans g'oyasi milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani, zamonaviy dunyoga yuzlanish hamda dunyo bilan tenglashmoq istagida ana shu Vatan va millat tuyg'usining yana bir jilvalanishini ko'rish mumkin.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. Shavkat Mirziyoyev: "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. 2020-yil 30-sentabr
2. Virginia Cox: "A Short History of the Italian Renaissance" - I.B. Tauris, 2016
3. P.V.N.Myers: "Mediaeval and modern history" - Ginn & Company, Boston, 1905